

## SINTAKTIK QIYOSLASHNING ASOSIY TAMOYILLARI

*SamDCHTI magistranti  
Berdiyeva Rajabgul*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolatil tizimining sintaktik qatlamiga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda gap strukturasining tahlil qilinishi va sintaktik aloqalar tavsiflangan.

**Kalit so‘zlar:** an’anaviy grammatika, sintaksis, sintaktik birliklar, gap bo‘laklari, ega va kesim, sintaksema, sintaktik aloqalar vasintaktik tahlil.

Jahon tilshunosligida bugungi kunda turli tillarning grammatik tizimiga bag‘ishlangan ishlarda sintaktik sathining murakkab va ko‘p qatlamli tarkibini tadqiq qilish alohida dolzarblikni kasb etmoqda. Roman tilshunosligida gapning sintaktik tahliliga turlicha yondashiladi. Xususan, ma’lum bir sintaktik ko‘rinishni tahlil qilishda komponentlarga ajratib tahlil qilishning o‘zi bir necha ko‘rinishlarga ega. Masalan, A. A. Xill tagmemalarni aniqlash, ya’ni gapni minimal funksional segmentlarga tagmemalarga ajratish, gapni bo‘laklarga taqsimlashni o‘z ichiga qamrab olishidir degan tamoyilga tayanadi [2; 290]. Z. S. Xerris esa zanjirli tahlil, ya’ni gap tarkibini elementar bo‘laklarga ajratish va distributsiya bazasida ad’yunktлага ajratish usulidan foydalanishni ma’qul ko‘radi [3; 250], R.E. Langaker ham zanjirli tahlilni bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish orqali amalga oshiradi [4;175].

Ma’lumki, har bir til tizimining sintaktik qatlamini o‘rganishda gaplar struktura jihatdan kommunikativ yo‘nalishiga hamda tarkibiga ko‘ra tasniflanadi. Ammo gapdagi so‘zlar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ularning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap strukturasini tahlil qilishda undagi gap bo‘laklari sintaktik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kategoriyalar gap tarkibidagi elementlarning o‘zaro munosabatini, bu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo‘laklarga ajralishini, so‘zning gapdagi rolini ko‘rsatadi. Har bir gap ma’lum ob’ektiv mazmun va substant material, ya’ni so‘zlar yordamida ifodalanadi. Gapning substansial tomoni uning sintaktik strukturasi hisoblanadi. Sintaktik strukturani tashkil etgan elementlar tilshunoslikda turlicha ya’ni “gap bo‘laklari”, “sintaksema”, “sintaktik shakl” kabi nomlanib kelinmoqda.

Ma’lumki, an’anaviy grammatikalarda gapning sintaktik tahlili bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib tahlil qilinadi. Ta’kidlash joizki, gap bo‘laklariga ajratib tahlil qilinganda sintaktik jihatdan ajraladigan va ajralmaydigan gap birliklari farqlanmaydi. Gap bo‘laklari tushunchasida elementlar sintaktik birliklar hodisasiga e’tibor berilmaydi. CHunki, bosh bo‘laklar ham ikkinchi darajali bo‘laklar ham sintaktik jihatdan ajraladigan birliklar bir funksiyani bajaradi deb tan olinib kelinmoqda.

Shuningdek, an’naviy grammatikalarda gapning sintaktik tahlili asosan bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib, tahlilni gap bo‘laklariga savol qo‘yish usullari yordamida aniqlaydi. Unda foydalaniladigan atamalar “ega” va “kesim” mustaqil lisoniy atama sifatida qo‘llaniladi. Bu atamalar ham tilshunoslar o‘rtasida bahstalab masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu atamalar haqida O. V. Dolgovaning ta’kidlashicha, “... gapning bo‘laklari sanalmish ega va kesim lingvistik aniqlanishga ega emas, ular asosan grammatik tushuncha sifatida ajratilmasdan, balki mantiqiy sub’ekt va predikat tushunchalariga ko‘pincha almashtirilib ishlatiladi, ular to‘liq asoslanmasdan, formal jihatdan tavsiflanadi” [1; 140].

Gapning sintaktik tahlili jarayonini gap bo‘laklariga ajratib tahlil qilish mifik grammatikasidagi tipik kamchilikdan o‘zga hodisa emas. Shuning uchun ham ushbu maqolada gap bo‘laklari atamasi boshqa lisoniy atamalar bilan almashtirib, bir yadro komponentini boshqasidan farqlovchi differensial sintaktik belgilarni farqlaymiz, ya’ni ega o‘rniga yadro predikativ 1 (NP1), kesim o‘rniga yadro predikativ 2 (NP2), ikkinchi darajali bo‘laklar o‘rnida kelgan sintaktik birliklar esa tobe komponentlar ( $\bar{N}D$ ) kabi lingvistik atamalar bilan o‘zgartirildi.

Gap qurilmasini tahlil qilishda sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalarini aniqlash natijasida gap tarkibidagi komponentlarning differensial sintaktik belgilarini ajratishga keng imkoniyat yaratildi. An’naviy grammatikalarda sintaktik aloqalar to‘g‘risida turlicha fikrlar mavjud bo‘lib, ular moslashuv, bitishuv va boshqaruvlarni sintaktik aloqalar deb e’tirof etadilar. Ammo moslashuv morfologik aloqa, bitishuv va boshqaruvlar asosan so‘z birikmalar tarkibida qaralgani bois ularni leksik aloqa ekanligi isbotlandi. Gap qurilmasini komponentlarga ajratib tahlil qilish sintaktik aloqalarni bir-biridan farqlashda muhim rol o‘ynaydi. Sintaktik aloqalarni aniqlashda eksperiment metodidan, ya’ni transformatsiyaning turli usullaridan, ya’ni tushirib qoldirish, qo‘sishma qilish, nominallashtirish, eksplikatsiya (tiklash), almashtirish kabilardan foydalanish asosiy o‘rinni egalaydi.

Xulosa qilib aytganda gapning sintaktik tahlilida turlicha yondashuvlar mavjuddir. Shu bois ham bugungi kunda turli tillarning grammatik tizimiga bag‘ishlangan ishlarda sintaktik sathining murakkab va ko‘p qatlamlili tarkibini tadqiq qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, har bir til tizimining sintaktik qatlamini o‘rganishda gaplar struktura jihatdan kommunikativ yo‘nalishiga hamda tarkibiga ko‘ra tasniflanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltakulova Gulnoza Farruxovna. (2022). Linguistic Methods in Sentence Analysis. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 13, 54–56. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/2548>

2. Болтакулова Г. Ф. Способы выражения обстоятельства времени в английском и русском языках и его место в предложении //Молодой ученый. – 2015. – №. 14. – С. 583-585.
3. Болтакулова Г. Ф. Синтаксическая дистрибуция компонентов, выражающих темпоральность в английском и узбекском языках //Вестник Челябинского государственного университета. – 2016. – №. 9 (391). – С. 44-50.
4. Dolgova O.V. Sintaksis kak nauka o postroenii rechi.- M.: Vissaya shkola, 1980.-186s.
5. Hill A.A. Introduction to Linguistic structures from sound to sentence in English. New York, 1958.- 396p.
6. Harris Z.S. String analysis of Sentence structure. The Hague, 1964. – 358p.
7. Longacre R.E. String Constituent Analysis. Language, 1960. v. 36, w1, P.-163-189.